



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

**“AMERIKA FOJEASI” ASARIDA TASVIRIY VOSITALARNING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI (EPITET, METAFORA, O‘XSHATISH VA PARALLELIZM TAHLILI)**

Abdixoliqov Abdulazizxon Abduvaxob o‘g‘li
Turon universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada Teodor Drayzer tomonidan yozilgan “An American Tragedy” romanida qo‘llangan stilistik vositalarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot roman narrativ tuzilmasida epitet, metafora, o‘xshatish (simile) va parallel konstruksiyalarning funksional rolini o‘rganishga qaratilgan. Mazkur stilistik vositalar semantik va lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilinib, ular bosh qahramonning psixologik holatini tasvirlash hamda ijtimoiy muhitni aks ettirishdagi ahamiyatini ochib beradi. Tadqiqot jarayonida matndagi tasviriy vositalarni o‘rganish uchun lingvopoetik, semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari epitetlar baholovchi ma’nolarni kuchaytirish hamda qahramon atrofidagi ijtimoiy sharoitlarni tasvirlashga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Metaforalar esa jamiyatning ierarxik tuzilishini va shaxs taqdiriga ta’sir etuvchi ijtimoiy determinizmni konseptual tarzda ifodalaydi. O‘xshatishlar qahramonning hissiy kechinmalarini obrazli tarzda namoyon etib, narrativ drammatizmni kuchaytiradi. Parallel sintaktik konstruksiyalar esa ichki ziddiyatlarni ta’kidlash hamda turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, stilistik vositalar, epitet, metafora, o‘xshatish (simile), parallelizm, badiiy til, narrativ tuzilma, qahramon psixologiyasi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy determinizm, tanqidiy realizm, naturalizm, An American Tragedy, Theodore Dreiser.

**ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В
ПРОИЗВЕДЕНИИ «АМЕРИКАНСКАЯ ТРАГЕДИЯ» (АНАЛИЗ ЭПИТЕТА, МЕТАФОРЫ,
СРАВНЕНИЯ И ПАРАЛЛЕЛИЗМА)**

Абдихоликов Абдулазизхон Абдувахоб угли
Университет Турон, магистрант

Аннотация

В статье анализируются лингвопоэтические особенности стилистических средств, использованных в романе «Американская трагедия», написанном Theodore Dreiser. Исследование направлено на изучение функциональной роли эпитета, метафоры, сравнения (simile) и параллельных конструкций в нарративной структуре произведения. Данные стилистические средства рассматриваются с семантической и лингвопоэтической точек зрения, раскрывая их значение в изображении психологического состояния главного героя и отражении социальной среды. В ходе исследования применялись методы лингвопоэтического, семантического и контекстуального анализа. Результаты показали, что эпитеты усиливают оценочные значения и способствуют описанию социальных условий, окружающих героя. Метафоры концептуально выражают иерархическую структуру общества и социальный детерминизм, влияющий на судьбу личности. Сравнения передают эмоциональные переживания героя, усиливая драматизм повествования. Параллельные синтаксические конструкции подчеркивают внутренние противоречия и демонстрируют различия между социальными слоями.

Ключевые слова: лингвопоэтика, стилистические средства, эпитет, метафора, сравнение (simile), параллелизм, художественный язык, нарративная структура, психология героя, социальная среда, социальный детерминизм, критический реализм, натурализм, An American Tragedy, Theodore Dreiser.

**LINGUOPOETIC FEATURES OF FIGURATIVE DEVICES IN THE WORK “AN AMERICAN
TRAGEDY” (ANALYSIS OF EPITHET, METAPHOR, SIMILE, AND PARALLELISM)**

Abdixoliqov Abdulazizxon Abduvaxob o‘g‘li
Turon University, Master’s student

Abstract

The article analyzes the linguopoetic features of stylistic devices used in the novel “An American

Tragedy” by Theodore Dreiser. The study focuses on the functional role of epithet, metaphor, simile, and parallel constructions within the narrative structure of the work. These stylistic devices are examined from semantic and linguopoetic perspectives, revealing their significance in portraying the psychological state of the protagonist and reflecting the social environment. The research employs linguopoetic, semantic, and contextual analysis methods. The findings indicate that epithets enhance evaluative meanings and help depict the social conditions surrounding the character. Metaphors conceptually express the hierarchical structure of society and the social determinism influencing individual fate. Similes convey the emotional experiences of the protagonist, intensifying narrative dramatism. Parallel syntactic constructions emphasize internal conflicts and highlight differences between social strata.

Keywords: linguopoetics, stylistic devices, epithet, metaphor, simile, parallelism, literary language, narrative structure, character psychology, social environment, social determinism, critical realism, naturalism, *An American Tragedy*, Theodore Dreiser.

Kirish. Badiiy matn tilining estetik, semantik va kommunikativ imkoniyatlarini o‘rganish zamonaviy lingvopoetikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki badiiy asarda til birliklari oddiy axborot yetkazish vositasi sifatida emas, balki obraz yaratish, qahramon ruhiyatini ochish, muallifning g‘oyaviy-estetik pozitsiyasini ifodalash hamda o‘quvchiga emotsional ta‘sir ko‘rsatish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, epitet, metafora, o‘xshatish va parallelizm kabi tasviriy vositalar badiiy nutqning obrazlilik darajasini kuchaytirib, asarning ichki semantik qatlamlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, badiiy matnda qo‘llangan stilistik birliklarni lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilish adabiy asarning nafaqat til xususiyatlarini, balki uning ijtimoiy, psixologik va estetik mohiyatini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Badiiy matn tilining estetik va semantik xususiyatlarini tahlil qilishda stilistik vositalar muhim nazariy ahamiyatga ega. Roman Jakobson poetik funksiyani tilning asosiy estetik vazifalaridan biri sifatida talqin qilib, badiiy matnda til birliklari nafaqat axborot yetkazish, balki estetik ta‘sir ko‘rsatish vazifasini ham bajarishini ta‘kidlaydi. I. R. Galperin esa stilistik vositalarni badiiy matnda emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikni kuchaytiruvchi muhim lingvistik birliklar sifatida izohlaydi va epitet, metafora, o‘xshatish hamda parallelizm kabi vositalar muallifning badiiy niyatini ifodalashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Mikhail Bakhtin roman tilini turli ijtimoiy ovozlari va ma‘no qatlamlari kesishgan murakkab diskurs sifatida talqin qiladi. Bu nazariy qarashlar *An American Tragedy* romanida qo‘llangan tasviriy vositalarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodlar (Methods)

Tadqiqotda Teodor Drayzerning “*An American Tragedy*” romani asosiy badiiy material sifatida tanlandi. Maqolada romanda qo‘llangan epitet, metafora, o‘xshatish va parallel sintaktik konstruksiyalarning lingvopoetik vazifalari tahlil qilindi. Tahlil jarayonida, avvalo, matndan qahramon psixologiyasi, ijtimoiy muhit tasviri va “*American Dream*” konseptining ziddiyatli mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi tasviriy vositalar ajratib olindi. Tadqiqotning asosiy metodi sifatida lingvopoetik tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod epitet, metafora, o‘xshatish va parallelizmining badiiy matndagi estetik, semantik va ekspressiv vazifalarini aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, zarur o‘rinlarda kontekstual tahlildan foydalanilib, tanlangan stilistik birliklarning alohida gap doirasida emas, balki roman voqealari, qahramon ruhiyati va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda qanday ma‘no kasb etishi izohlandi. Tahlil davomida har bir tasviriy vosita uning badiiy vazifasi, semantik yuklamasi va qahramon obrazini ochishdagi roli nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi. Epitetlar baholovchi va tavsiflovchi birlik sifatida, metaforalar jamiyat va shaxs munosabatini ifodalovchi konseptual vosita sifatida, o‘xshatishlar esa qahramonning hissiy kechinmalarini obrazli tasvirlash vositasi sifatida talqin qilindi. Parallel sintaktik konstruksiyalar matnning ritmik-semantik tuzilishini kuchaytiruvchi hamda ichki ziddiyatlarni ta‘kidlovchi uslubiy vosita sifatida baholandi.

Tahlil va natijalar. Teodor Drayzerning “*Amerika fojiasi*” romani tanqidiy realizm va naturalizm poetikasiga xos holda tasviriy vositalarning keng va funksional qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Ushbu bobda epitet, metafora, o‘xshatish va parallelizm kabi stilistik vositalar lingvopoetik va semantik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi hamda ularning qahramon psixologiyasi va ijtimoiy muhitni ochishdagi roli yoritiladi.

Epitet — epitet Teodor Drayzer ijodida tasvirning aniqligi va baholovchi xarakterini kuchaytiruvchi eng muhim stilistik vositalardan biri hisoblanadi. Muallif epitetlar orqali nafaqat tashqi muhitni, balki qahramonlarning ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati va ichki ziddiyatlarini ochib beradi.

Ayniqsa, “Amerika fojiasi” romanida epitetlar kambag‘allik, ijtimoiy pastlik va psixologik bosimni ifodalovchi lingvopoetik vosita sifatida faol qo‘llanadi. Quyidagi misolda epitetlar oilaviy muhitning og‘ir ijtimoiy holatini tasvirlaydi: “The furniture was worn and shabby; the house was small and cramped.” (Dreiser, 1925, p. 21)

Bu yerda worn, shabby, small, cramped epitetlari kambag‘allikni faqat vizual tasvir sifatida emas, balki ijtimoiy baho sifatida ifodalaydi. Semantik jihatdan mazkur birliklar Klayd Griffits ongida shakllanayotgan pastlik kompleksi va jamiyatga nisbatan norozilik hissini kuchaytiradi. Epitetlar muhitning qahramon psixologiyasiga bosim o‘tkazayotganini ko‘rsatadi.

Drayzer epitetlardan qahramonning ruhiy holatini ifodalashda ham samarali foydalanadi: “He felt a vague and disturbing fear that he could not name.” (Dreiser, 1925, p. 112)

Bu misolda vague va disturbing epitetlari Klaydning ichki noaniqligi, ongosti xavotiri va psixologik beqarorligini ifodalaydi. Semantik jihatdan bu epitetlar qahramon ruhiyatidagi aniqlanmagan qo‘rquvni va kelajak oldidagi ishonchsizlikni chuqurlashtiradi.

Klaydning jamiyatdagi o‘rmini anglash jarayonida epitetlar sinfiy tafovutni ochishga xizmat qiladi: “He was conscious of his humble origins and his awkward position among those more fortunate.” (Dreiser, 1925, p. 74)

Bu yerda humble va awkward epitetlari Klaydning ijtimoiy pastligi va o‘zini begona his qilish holatini ifodalaydi. Epitetlar qahramonning jamiyatda o‘ziga nisbatan baholovchi qarashini ko‘rsatib, sinfiy ziddiyatni semantik jihatdan kuchaytiradi.

Epitetlar Klaydning orzu va istaklarini ham baholovchi ohangda tasvirlaydi: “His dreams were grand and alluring, yet painfully out of reach.” (Dreiser, 1925, p. 189)

Bu misolda grand va alluring epitetlari orzularning jozibadorligini ifodalasa, kontekstual jihatdan ular real hayot bilan mos kelmasligini anglatadi. Natijada epitetlar orzu va voqelik o‘rtasidagi ziddiyatni ochadi.

Shuningdek, Drayzer epitetlar yordamida jamiyatning sovuqligi va befarqligini tasvirlaydi: “The city appeared cold and indifferent to his struggles.” (Dreiser, 1925, p. 141)

Bu yerda cold va indifferent epitetlari shaharni jonli makon emas, balki qahramonni ezuvchi ijtimoiy tizim sifatida tasvirlaydi. Bu holat tanqidiy realizm poetikasiga xos ijtimoiy baholashni kuchaytiradi.

Metafora — metafora Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida ijtimoiy tuzilma va shaxs taqdirini konseptual darajada talqin qilishga xizmat qiluvchi asosiy lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Muallif metaforalar orqali jamiyatni abstrakt tushuncha sifatida emas, balki qahramon hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli tizim sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, ijtimoiy harakat, sinfiy o‘rish va tanazzulni ifodalovchi metaforalar roman g‘oyaviy asosini mustahkamlaydi.

Quyidagi mashhur metafora jamiyatni qatlamlashgan ijtimoiy mexanizm sifatida ifodalaydi: “The world is like a great staircase, some are going up and some are going down.” (Dreiser, 1925, p. 154)

Bu yerda staircase metaforasi jamiyatni yuqori va quyi pog‘onalardan iborat bo‘lgan tizim sifatida ko‘rsatadi. Semantik jihatdan mazkur metafora ijtimoiy harakatchanlikning notekisligini ifodalaydi: har bir inson yuqoriga ko‘tarilish imkoniga ega emas. Klayd uchun bu pog‘onalar orzu va haqiqat o‘rtasidagi masofani bildiradi. Metafora ijtimoiy determinizm g‘oyasini kuchaytirib, shaxs taqdiri individual irodadan ko‘ra jamiyat qonunlariga ko‘proq bog‘liqligini anglatadi.

Klaydning jamiyat oldidagi o‘zligi quyidagi metafora orqali ifodalanadi: “He felt himself bound by invisible chains of circumstance.” (Dreiser, 1925, p. 56)

Invisible chains metaforasi ijtimoiy bosim, iqtisodiy qaramlik va axloqiy majburiyatlarning shaxs erkinligini cheklashini konseptual ravishda ifodalaydi. Zanjirlar ko‘rinmas bo‘lsa-da, ularning ta’siri kuchli. Bu metafora qahramonning ichki erkinlik va tashqi majburiyatlar o‘rtasidagi ziddiyatini ochadi hamda naturalistik qarashlarni semantik jihatdan mustahkamlaydi.

Drayzer metaforalar orqali jamiyatni shaxsni yutib yuboruvchi kuch sifatida tasvirlaydi: “He was caught in the current of life that carried him forward whether he wished it or not.” (Dreiser, 1925, p. 98)

Bu yerda current of life metaforasi hayotni shaxs nazoratidan tashqaridagi kuchli oqim sifatida talqin qiladi. Semantik jihatdan bu obraz inson irodasining zaifligini va tasodifiy omillarning ustunligini anglatadi. Klayd oqimga qarshi suza olmaydi, u faqat uning yo‘nalishiga bo‘ysunadi.

Qahramonning ruhiy holati va ichki bosimi quyidagi metafora orqali yanada kuchaytiriladi: “His mind was a battlefield of hopes and fears.” (Dreiser, 1925, p. 173)

Shuningdek, Drayzer orzu va haqiqat o‘rtasidagi masofani quyidagi metafora bilan ifodalaydi:

“Success seemed a distant mirage shimmering before him.” (Dreiser, 1925, p. 201)

Distant mirage metaforasi muvaffaqiyatning jozibador, ammo yetib bo‘lmas obrazini yaratadi. Semantik jihatdan bu tasvir “American Dream” konseptining yolg‘on va aldanchi mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

O‘xshatish (simile) — o‘xshatishlar (simile) Teodor Drayzer romanida qahramon kechinmalarini aniqlashtirish, dramatik ta’sirni kuchaytirish va psixologik holatni vizual tarzda ochish vazifasini bajaradi. Similelar ko‘pincha qahramon ruhiyati, ijtimoiy pozitsiyasi va tashqi muhit bilan bog‘liq hissiyotlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Quyidagi misolda Drayzer Klaydning umidlarini ijtimoiy sharoit bilan bog‘lab ifodalaydi: “His hopes fell away like leaves in autumn.” (Dreiser, 1925, p. 203)

Bu o‘xshatish umidlarning sekin, ammo muqarrar yo‘qolishini tasvirlaydi. Semantik jihatdan, u Klaydning ruhiy tushkunligi va orzularining barbod bo‘lishini ifodalaydi. Shuningdek, tabiiy fenomen bilan qahramon his-tuyg‘ularini solishtirish orqali Drayzer psixologik voqeani yanada realistik va tushunarli qiladi. Autumn (kuz) fasli qahramonning ruhiy pasayishini va ijtimoiy imkoniyatlarning cheklanganligini ramziy ravishda kuchaytiradi. Yana bir misolda simile Klaydning ichki zo‘riqishini dramatik tarzda namoyon qiladi: “He stood silent, like a man caught in a trap.” (Dreiser, 1925, p. 267)

Bu o‘xshatish orqali qahramonning umidsizligi, chiqish yo‘lining yo‘qligi va ichki qamalanganlik hissi obrazli tarzda ifodalanadi. Semantik jihatdan simile qahramonning tashqi vaziyat va ichki his-tuyg‘ular o‘rtasidagi ziddiyatini ochadi. Shu bilan birga, o‘xshatish ijtimoiy determinizm g‘oyasini mustahkamlaydi: shaxs ko‘pincha o‘z irodasidan tashqarida bo‘lgan ijtimoiy “tuzoqqa” tushadi.

Parallel sintaktik konstruktsiyalar Teodor Drayzer romanida voqealar rivoji, qahramon ruhiyatidagi ichki ziddiyat va jamiyatdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni ifodalashda muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Parallelizm muallif nutqiga ritmik izchillik beradi, bir-biriga qarama-qarshi ijtimoiy holatlarni taqqoslash imkonini yaratadi hamda Klayd Griffitsning orzu va voqelik o‘rtasidagi ruhiy bo‘linishini kuchaytiradi. Ayniqsa, roman matnida boylik va kambag‘allik, orzu va imkoniyatsizlik, ichki istak va tashqi majburiyat kabi qarama-qarshi tushunchalar parallel qurilmalar orqali yoritiladi. Bunday sintaktik takrorlar badiiy matnda dramatik kuch hosil qilib, qahramonning jamiyat tomonidan cheklangan taqdirini yanada ta’sirchan ifodalaydi. Parallelizm orqali Drayzer individual fojeani ijtimoiy fojea darajasiga ko‘taradi, chunki bir xil sintaktik tuzilmalar takrorlanishi orqali qahramon hayotidagi muqarrarlik, bosim va ruhiy iztirob kuchaytiriladi.

Masalan, romanning boshlang‘ich qismida diniy targ‘ibot nutqi quyidagi parallel tuzilma orqali beriladi: **“to counsel, to aid, to hearten, to bind up our wounds and make us whole”**. Bu misolda bir xil infinitiv shakllarning ketma-ket takrorlanishi nutqqa ritmik kuch bag‘ishlaydi va diniy da’vat ohangini kuchaytiradi. “To counsel”, “to aid”, “to hearten” kabi parallel birliklar bir tomondan ruhiy tasalli berish ma’nosini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan Klayd yashayotgan diniy-missionerlik muhitining takroriy, bosimli va biryoqlama xarakterini ko‘rsatadi. Ushbu parallelizm orqali Drayzer qahramon ongiga ta’sir etayotgan tashqi muhitni lingvopoetik jihatdan tasvirlaydi.

Yana bir o‘rinda muallif Klaydning ichki noroziligini parallel gap qurilmalari orqali ifodalaydi: **“His life should not be like this. Other boys did not have to do as he did.”** Bu yerda “should not” va “did not” shakllari orqali inkor mazmuni ketma-ket kuchaytiriladi. Birinchi gap Klaydning o‘z hayotidan noroziligini bildirsa, ikkinchi gap bu norozilikni boshqa bolalar hayoti bilan qiyoslash orqali yanada chuqurlashtiradi. Natijada parallel sintaktik qurilma qahramon ruhiyatidagi ijtimoiy pastlik hissi, uyat va ichki isyonni ochishga xizmat qiladi. Bu holat roman poetikasida Klaydning keyingi fojeali tanlovlariga olib boruvchi psixologik zaminni ko‘rsatadi

Muhokama (Discussion)

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Teodor Drayzerning “An American Tragedy” romanida epitet, metafora, o‘xshatish va parallelizm kabi tasviriy vositalar faqat badiiy bezak vazifasini bajarmaydi, balki asarning g‘oyaviy-estetik mazmunini shakllantiruvchi muhim lingvopoetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu vositalar orqali muallif Klayd Griffitsning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy muhit ta’siri, sinfiy tafavutlar va “American Dream” konseptining ziddiyatli mohiyatini badiiy jihatdan ochib beradi.

Roman Jakobsonning poetik funksiya haqidagi qarashlari nuqtayi nazaridan yondashilganda, Drayzer matnidagi tasviriy vositalar tilning estetik imkoniyatlarini faollashtiruvchi birliklar sifatida talqin qilinadi. Jakobson fikricha, badiiy matnda til faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki o‘z shakli, takrori, ohangi va obrazlilik xususiyati orqali estetik ta’sir hosil qiluvchi tizimdir. Shu ma’noda romandagi

epitetlar, metaforalar, o‘xshatishlar va parallel sintaktik konstruksiyalar matnning poetik funksiyasini kuchaytiradi. Masalan, kambag‘allikni ifodalovchi worn, shabby, small, cramped kabi epitetlar oddiy tavsif emas, balki qahramon yashayotgan muhitning estetik va ijtimoiy bahosini beruvchi birliklar sifatida xizmat qiladi. Parallel konstruksiyalar esa matnga ritmik izchillik berib, qahramon hayotidagi ichki bosim va muqarrarlik hissini kuchaytiradi.

I.R. Galperinning stilistik vositalar haqidagi nazariy qarashlari asosida tahlil qilinganda, romandagi tasviriy birliklar emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikni kuchaytiruvchi vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Galperin epitet, metafora, o‘xshatish va takror kabi stilistik birliklarni muallif munosabati, obrazning baholovchi xususiyati va matnning ta’sirchanligini oshiruvchi vositalar sifatida izohlaydi. Drayzer romanida epitetlar aynan shu vazifani bajaradi: ular qahramonning ichki holatini, ijtimoiy noqulayligini va atrof-muhitning bosimini baholovchi semantik yuk bilan ifodalaydi. Metaforalar esa jamiyatning shaxs hayotiga ta’sirini kuchli obrazlar orqali ochadi. Masalan, invisible chains metaforasi shaxs erkinligini cheklovchi ijtimoiy sharoitlarni ifodalasa, great staircase metaforasi jamiyatdagi sinfiy pog‘onalanish va yuqoriga ko‘tarilish istagini konseptual tarzda tasvirlaydi.

M.M. Baxtinning roman diskursi haqidagi qarashlari esa Drayzer asaridagi tasviriy vositalarni ijtimoiy ovozlari va qadriyatlar to‘qnashuvi doirasida talqin qilish imkonini beradi. Baxtin roman tilini turli ijtimoiy qatlamlar, dunyoqarashlar va nutq uslublari kesishadigan murakkab badiiy maydon sifatida baholaydi. “An American Tragedy” romanida ham tasviriy vositalar faqat individual qahramon ruhiyatini emas, balki jamiyatdagi sinfiy tafovut, boylik va kambag‘allik, orzu va imkoniyatsizlik, shaxsiy istak va ijtimoiy majburiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni ifodalaydi. Shu jihatdan metafora va parallelizm romanda ijtimoiy diskursni ochuvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Klaydning shaxsiy fojiasi alohida individual holat emas, balki Amerika jamiyatidagi ijtimoiy tengsizlik va axloqiy bosimning badiiy natijasi sifatida ko‘rsatiladi.

Xulosa (Conclusion). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Teodor Drayzerning “An American Tragedy” romanida epitet, metafora, o‘xshatish va parallelizm kabi tasviriy vositalar muallifning badiiy konsepsiyasini ifodalovchi muhim lingvopoetik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu vositalar roman matnida faqat estetik bezak vazifasini bajarmaydi, balki qahramon psixologiyasini ochish, ijtimoiy muhitni tasvirlash, sinfiy tafovutlarni ko‘rsatish va “American Dream” konseptining ziddiyatli mohiyatini yoritishda faol ishtirok etadi. Epitetlar roman matnida baholovchi va tavsiflovchi xususiyatga ega bo‘lib, Klayd Griffiths yashayotgan ijtimoiy muhitning og‘irligi, kambag‘allik, noqulaylik, ruhiy bosim va ichki beqarorlikni ifodalashga xizmat qiladi. Worn, shabby, small, cramped, vague, disturbing, humble, awkward kabi epitetlar qahramonning tashqi muhit bilan munosabatini, o‘zini jamiyatda past mavqedagi shaxs sifatida his etishini hamda ruhiy iztiroblarini semantik jihatdan kuchaytiradi. Shu jihatdan epitetlar romanda qahramon xarakterini va ijtimoiy sharoitni baholovchi muhim lingvopoetik vosita hisoblanadi. Metaforalar esa Drayzer romanida jamiyat, shaxs va taqdir munosabatlarini konseptual darajada ifodalashga xizmat qiladi. Great staircase, invisible chains, current of life, battlefield of hopes and fears, distant mirage kabi metaforik birliklar jamiyatning ierarxik tuzilishi, ijtimoiy determinizm, inson erkinligining cheklanishi va “American Dream”ning aldanchi mohiyatini ochib beradi. Ayniqsa, jamiyatni pog‘onali tizim yoki insonni cheklovchi ko‘rinmas zanjirlar sifatida tasvirlash orqali muallif shaxs taqdiri ko‘pincha individual iroda bilan emas, balki ijtimoiy muhit va tashqi omillar bilan belgilanayotganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dreiser T. *An American Tragedy*. – New York: Boni & Liveright, 1925. – 859 p.
2. Dreiser T. *An American Tragedy*. – New York: Signet Classic, 2000. – 859 p.
3. Галперин И. П. *Стилистика английского языка*. – Москва: Высшая школа, 1977. – 334 с.
4. Виноградов В. В. *Язык художественной литературы*. – Москва: Наука, 1971. – 312 с.
5. Abrams M. H. *A Glossary of Literary Terms*. – Boston: Cengage Learning, 1999. – 366 p.
6. Baldick C. *The Oxford Dictionary of Literary Terms*. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 432 p.
7. Fowler R. *Linguistic Criticism*. – Oxford: Oxford University Press, 1986. – 210 p.
8. Leech G., Short M. *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose*. – London: Longman, 2007. – 404 p.
9. Lodge D. *The Language of Fiction*. – London: Routledge, 2002. – 296 p.
10. Simpson P. *Stylistics: A Resource Book for Students*. – London: Routledge, 2004. – 247 p.